

MODERN METHODS IN TEACHING TECHNOLOGY

Yetmisheva Dilorom Gulomovna

Senior teacher, Fergana regional center for retraining and advanced training of public educators

Annotation

Technology is one of the important elements of the modern education system, which serves as a program to prepare students for future employment. This article discusses modern methods used in teaching technology science.

Keywords:

Technology, metalworking, home economics, fabric work.

Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisi texnik ijodkorligini shakllantirish masalasi ko'p qirrali bo'lib, u talabalarni ijodkorlik faoliyatiga tayyorlashning samarali yo'llarini aniqlash va mazmunini muvofiq tanlash birgalikda, o'quv jarayonida texnik ijodkorlikni bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy va kasbiy tayyorgarligini umumlashtirishning aniq usul va vositalarini ishlab chiqishdek muhim pedagogik vazifani o'z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu jarayon vatanimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni aks ettirishi va zamonaviy ilmiy talablarga to'la javob berishi kerak.

Respublikamizning bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tishi va dunyo hamjamiyatiga har tomonlama kirib borishi natijasida ilm olishni axborotlashtirishning amaliy yo'naltirilgan yaxlit davlat siyosatiga asos solindi, uning ustivorliklari bo'lgan dastlabki meyoriy-huquqiy asoslar yaratildi. Bunga misol sifatida "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida", "Axborotlashtirish to'g'risida", "Elektron hisoblash mashinalari uchun dasturlarni va ma'lumotlar bazalarini huquqiy muhofaza qilish to'g'risida", "Aloqa to'g'risida"gi qonunlar va boshqa dasturiy hujjatlarni keltirish mumkin. Ushbu qonunlarga muvofiq yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar intellektual mulkdan unumli foydalanishdagi iqtisodiy samarani oshirish, yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, ular vositasida yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga asoslangan intellektual mulk innovatsiya jarayonlarini rivojlantirish uchun yangi istiqbollarni ochib berdi.

Mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy g'oyasi barkamol insonni tarbiyalashni nazarda tutadi. Barkamol shaxsning muhim sifatlari bo'lgan mehnatsevarlik, kasbiy qiziquvchanlik, ijtimoiy faollik, tirishqoqlik, intizomlilik, tashabbuskorlik, ijodkorlik qobiliyatlarini tarbiyalash o'rta umumiy ta'lim muassasalarining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining markazida shaxs sifatlari turar ekan ta'lim metodlarini shu asosida tanlash va qo'llash ishlarini takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu borada o'quvchilarning faolligini oshirish, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni samarali tashkil qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslari yoshlarni hayotga, kasb-hunarga tayyorlashda muhim o'ringa ega.

Texnologiya (yunoncha techne — san'at, mohirlik, uquv) — sanoat, qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan. Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi va boshqalar.

“Texnologiya” darsligi insonlar hayotida muhim o‘rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishda muhim o‘rin tutadi. Voyaga yetib, qaysi kasbni egallamang, kim bo‘lmang, “Texnologiya” fanidan olgan bilim va ko‘nikmalaringiz Sizga hayotda, albatta, naf keltiradi. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadi - o‘quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo‘llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida texnologiya o‘quv fanini o‘qitishning asosiy vazifalari: materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid ma‘lumotlarni o‘rganish; texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish; texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qo‘llay olish; texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish; texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish; buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish; ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

Malakali o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan V-IX sinflarda “Texnologiya” o‘quv fanidan o‘quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo‘lgan umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida ikki guruhga bo‘lib o‘qitishga ruxsat etiladi.

Texnologiya fanini o‘qitishda boshlang‘ich sinflarda “Iqtisod alifbosi”, yuqori sinflarda “Sog‘lom avlod asoslari”, “Hayot xavfsizligi asoslari” hamda “Iqtisod saboqlari” o‘quv kurslari singdirilib o‘qitiladi. Har bir dars xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilgan holda tashkil etiladi.

Shuningdek, o‘quvchilarga texnologiya fanini yo‘nalishlari bo‘yicha kasb turlari haqida axborotlar beriladi.

O‘zbekiston Respublikasida ta‘limning uzluksizligi, uzviyligi, o‘quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ubaydulayeva, S.R., Nigmatov, A.M. Development of a graph model and algorithm to analyze the dynamics of a linear system with delay. <https://www.scopus.com/inward/record.uri?eid=2-s2.0-85086757861&doi=10.1109%2fICIEAM48468.2020.9111939&partnerID=40&md5=bd0b367359704ab5733ec63162a7d568>